


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70810902- O'simlikshunoslik (gulchilik)
magistratura mutaxassisligining malaka talablari



Toshkent – 2023

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi	5
1.1.	Qo‘llanish sohasi	5
1.1.1.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.....	5
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	5
1.2.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi	5
1.2.1.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	5
1.2.2.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	6
1.2.4.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	6
2.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar	8
2.3.3.	70810902 – O‘simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi	8
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. 70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligi – Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, davlat boshqaruvi organlari, O'rmon xo'jaligi agentligi, Gul yetishtiruvchilar uyushmasi tizimida gul urug'chiligini tashkil etish, gul ko'chatlarini yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash, gul yetishtiruvchi issiqxonalarni loyihalash, tashkil etish va foydalanish, manzarali gul o'simliklarining holatini monitoring qilish, turli mintaqalar uchun manzarali gullar assortimentini tuzish, introduksiyasi va iqlimlashtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy o'quv yurtlari va kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassislikka oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, uning turli hududiy bo'linmalarida boshqaruv jarayonlari;
- gul yetishtiruvchilar uyushmasi, uning xududiy boshqarma va bo'limlarida manzarali gullarni yetishtirishni boshqarish jarayonlari;
- obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tashkilotlarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;
- tashkiliy-boshqaruv obyektlari;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

1.2.3. Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- manzarali gullarni yetishtirish faoliyati;
- issiqxona xo'jaligi faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Manzarali gullarni yetishtirish va issiqxona xo'jaligi faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'limlari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- manzarali gullarni yetishtiruvchi xo'jaliklarda gul ko'chatlarini yetishtirish, kesma gullarni tayyorlash va saqlash, zamonaviy issiqxonalarda gul ko'chatlarini yetishtirish ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish;

- ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;
- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbqiq etish;
- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash;
- amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish;

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;
- kasbiy etika qoidalariga rioya qilish;
- yangi manzarali gul turlari va navlarini tanlash, ko'paytirish usullari hamda yetishtirish texnologiyalari bo'yicha gulchilikka ixtisoslashgan xususiy korxonalar hamda shaxsiy tomorqa egalari maslahat berish;
- gulchilikda innovatsion ishlanmalar bo'yicha tahlillar tuzish;
- magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish, ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish.

2. 70810902-O'simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar,

konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'limlari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- gul yetishtiruvchi xo'jaliklarda manzarali gullarni yetishtirish, kesma gullarni tayyorlash va saqlash, zamonaviy issiqxonalarda gul ko'chatlarini yetishtirish ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etishni qo'llay olish;
- ko'kalamzorlashtirish obyektlarida va gul ko'chatzorida inventarizatsiya o'tkazishni bilish;
- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish malakasiga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga quyidagi talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistr ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – mutaxassislik doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidoriniqo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: landshaft dizayneri, gulchi, tadqiqotchi-pedagog.

2.3.2. 70810902 – O'simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1200	40
Tanlov fanlar	600	20
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70810902 – O'simlikshunoslik (gulchilik) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1200	40	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	2
1.02	MFO'MM1404	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
1.03	GITUM1404	Gulchilikda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	GKTM1406	Gullarni ko'paytirish texnologiyasi	180	6	1
1.05	GSELM1406	Gul seleksiyasi	180	6	2
1.06	MGYM2404	Mavsumiy gullarni yetishtirish	120	4	3
1.07	IGYM2406	Interer gullarini yetishtirish	180	6	3

1.08	KGYM2406	Kesma gullarni yetishtirish	180	6	3
2.00		Tanlov fanlari (8 ta fan)	600	20	1,2,3
		Jami:	1800	60	
3.00	IF2460	Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01	ITIMD2436	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
3.02	IPI2412	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IATO2412	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	4
		HAMMASI:	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 635.9

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, o'rmon barpo etish, daraxt turlarini tanlash, o'rmonchilik sohasi, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, texnik qabul qilish, inventarizatsiya, o'rmon bilan qoplangan maydonga o'tkazish tartiblari, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariy.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S.Y. Islamov

2023 yil « 10 » 07

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh.U. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.

Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Rektor  K.Komilov

2023 yil « 20 » 07

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
O'rmon xo'jaligi agentligi

Direktor o'rinbosari  G'.Qurbonov

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti

Direktor  S.A.Arabov

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

Toshkent Shahar hokimligi huzuridagi
Obodonlashtirish bosh boshqarmasi

Boshqaruvchi  R.A.Yusupov

2023 yil « 19 » 07

M.O'.

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
70810902- O‘simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“ 10 ” 07 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, O‘rmon xo‘jaligi ilmiy tadqiqot instituti direktori S.A.Arabov, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalvriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70810902- O‘simlikshunoslik (gulchilik) magistratura mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘rmon xo‘jaligi ilmiy tadqiqot instituti
direktori**

S.Arabov

**Andijon qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti
rektori**

K.Komilov

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor**

S.Islamov